

## **KORXONALARING BOZOR XIZMATLARI KO'RSATKICHLARI**

**Rustamov Dilshodjon Shaydullo o'g'li**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

"Iqtisodiyot" yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Jahonda xizmatlar sohasining rivojlanib borishi ishlab chiqarish sohasiga nisbatan oldinlab bormoqda. Maqolada xizmatlar sohasini rivojlanishi, uning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida ulush ko'rsatkichlari bayon etilgan. Shuningdek sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, ularning xizmatlar hajmi ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Sohadagi ayrim muammolar ko'rsatib o'tilib, sohani rivojlantirish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tovar, kapital, ishchi kuchi, xizmatlar, kam xarajat, qisqa muddat, hududlar ulushi, aholi jon boshiga xizmatlar ko'rsatish, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari, risklar, malakali kadrlar

### **Kirish**

Jahon iqtisodiyoti tarkibida tovar, kapital, ishchi kuchi bozorlari bilan bir qatorda xizmatlar bozori ham alohida ahamiyatga ega. Xizmatlar bozori - bu turli elementlarni o'z ichiga olgan murakkab tizim bo'lib, uning asosiy vazifasi aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Xizmatlar bozorining markazida jahon iqtisodiyotining ulkan va tez rivojlanayotgan qismi xizmat ko'rsatish sohasi turadi. Hozirgi vaqtda u jahon iqtisodiyotining eng dinamik sektorini ifodalaydi.

Fransiyada xizmat ko'rsatish sohasi YaIMning 80%, Belgiyada 76%, Daniyada 76%, Italiyada 73%, Gretsiyada 78,5%, Germaniyada 70%, Avstriyada 67% ni tashkil qiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Gonkongda ixtisoslik darajasi yuqori bo'lib u 92,3%ni tashkil qiladi. Kanadada xizmatlarning YaIMdagi ulushi 78%, AQShda 76,7%, Yaponiyada 75,9%ga tengdir.

Xalqaro statistika ham xizmatlar savdosi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Xususiy firmalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushi ayniqsa tez o'sib bormoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar ulushining o'sishi kuzatilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga Prezidentimiz tomonidan ham alohida

e'tibor qaratilib turli chora-tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. jumladan ular ma'ruzalarida quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Axborot sohasida xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish, narxlarni arzonlashtirish va sifatini oshirish hisobiga aloqa va internet xizmatlari hajmini kamida 2 baravarga, dasturlashni 3 baravarga oshirish imkoniyati bor... Servisni aholiga yaqinlashtirish maqsadida mahallalarda yengil konstruktsiyalardan xizmatlar markazi barpo etish muhim. Xizmat ko'rsatishda eng muhim masala – bu manzilni to'g'ri tanlash [1].

Demak, xizmat ko'rsatish sohasi keng qamrovliligi bilan iqtisodiyotda, aholi hayotida muhim o'rinni tutadi. Bu sohada yangi ish o'rinnarini kam xarajat bilan va tez muddatda tashkil etish mumkin. Aholi daromadlarining real o'sishi ham avvalo xizmatlar rivojida sezildi. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi hayot sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

Faoliyatning keng doirasini o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o'yndaydi, yangi ish o'rinnarini yaratish, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga yordam beradi. An'anaviy ishlab chiqarish tarmoqlaridan farqli o'laroq, bu sektor o'z mijozlariga moliyaviy, ta'lim, sog'liqni saqlash, texnologiya, mehmondo'stlik, turizm va boshqalar kabi turli sohalarda xizmatlar ko'rsatishni qamrab olgan nomoddiy yechimlarni taqdim etishga qaratilgan.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriadir.

2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni 485 024 birlikni tashkil etdi. Shundan xizmatlar sohasiga 343 059 birligi to'g'ri keladi, bu umumiyligi sonining 70,7 % ini tashkil etadi.

### **1-jadval**

#### **Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (birlikda)**

Davrlar	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
2020 yil	309 387	55 633
2021 yil	347 581	65 389
2022 yil	392 787	60 561
2023 yil	343 059	60 408

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 5, May 2024

2023 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 60 408 birlik yoki ularning umumiy sonining 68,0 % i (88 787 birlik) darajasida qayd etildi.

Mamlakatimizda iste'molchilarga turli xil bozor xizmatlari ko'rsatilib kelinmoqda.

*Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi* – bu ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 41,1 %, ya'ni 193 227,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2022 yilga nisbatan ushbu hududning o'sish sur'ati 113,7 % ga yetgan.

## 2-jadval

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd.so'mda		Ulushi, % da
	2022 yil	2023 yil	
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>366 891,0</b>	<b>470 286,5</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10 595,3	12 876,6	2,7
Andijon	17804,0	21793,4	4,6
Buxoro	15848,8	19344,0	4,1
Jizzax	8127,3	10378,3	2,2
Qashqadaryo	15967,7	19518,4	4,2
Navoiy	9322,8	11520,7	2,4
Namangan	14693,4	17822,9	3,8
Samarqand	22953,6	28992,0	6,2
Surxondaryo	12838,4	15493,7	3,3
Sirdaryo	5018,8	6099,0	1,3
Toshkent	25919,7	31934,8	6,8
Farg'on'a	22131,8	26592,8	5,7
Xorazm	10480,4	13266,1	2,8

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 5, May 2024

Toshkent shahri

144533,7

193227,7

41,1

Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 099,0 mlrd. so'mni yoki jami xizmatlar hajmining 1,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 110,9 % ga yetdi.

Xizmatlar sohasining samaradorligini, uning hayot farovonligidagi ahamiyati aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmini o'zgarish dinamikasi ko'ra baho berish mumkin.

**3-jadval**

## Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
<b>Xajmi, ming so'mda</b>	6426,1	8145,1	10292,0	12915,6
<b>Oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>	101,0	126,8	126,4	125,5

Ma'lumki, *aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu* – mamlakatda ma'lum bir davrda ko'rsatilgan barcha xizmatlarning bozor qiymatini, o'rtacha bir kishiga (aholi jon boshiga) aks ettiruvchi ko'rsatkichdir.

**4-jadval**

## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023 yil yanvar-dekabr)

Hududlar	Xizmatlar hajmi, ming.so'mda	O'sish sur'ati
Toshkent shahri	64 439,3	115,2
Navoiy	10 813,5	110,3
Toshkent	10 565,3	108,8
Buxoro	9 543,6	109,2
Samarqand	6 963,5	111,2
Jizzax	6 958,3	110,4
Sirdaryo	6 737,0	108,7
Xorazm	6 710,9	112,5
Farg'onha	6 616,9	108,2
Andijon	6 489,0	109,0

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 5, May 2024

Qoraqolpog'iston Respublikasi	6 472,6	109,3
Namangan	5 878,7	108,7
Qashqadaryo	5 542,6	108,6
Surxondaryo	5 452,1	107,9

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'r-satilgan bozor xizmatlari hajmi 12 915,6 ming so'mga yetdi. 2022 yilda ko'rib chiqilayotgan davrga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 % foizni tashkil etib, hajmi esa 2 623,5 ming so'mga oshdi. Eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etilgan – 64 439,3 ming so'm. Bu hududda o'sish sur'ati 115,2 foizni tashkil etdi.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lumki, sohada o'sish dinamikasi kuzatilmoqda. Lekin bu soha muammolardan xoli ekanligini anglatmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sohani rivojlanishida unga to'siq bo'luvchi ayrim muammolar mavjud bo'lib, ularga – xizmatlar ko'rsatish korxonalarida eksportbop xizmatlarni amalga oshirish muammolari [8], xizmatlar sohasini zamonaviy boshqarish usullari, strategiyalarini ishlab chiqishga ehtiyojni mavjudligi [7;10], boshqaruvning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati [2], samarali qarorlar qabul qilish zaruriyati [6], korxonalarda turli risk holatlarini yuzaga kelishi [4;5], ayrim hududlarda xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy salohiyat darajasini pastligi [3;9], xizmatlar hajmini oshib borishi bilan bir qatorda aholi sonining ortib borishi, xizmatlarga bo'lgan talabni qondirish uchun sohani uzluksiz rivojlantirib borishga, yangi xizmatlarni ko'rsatishga ehtiyojni ortib borishi; xizmatlardan samarali foydalanish uchun aholining daromad darajasining notejisligi; xizmatlar tanlovini amalga oshirishda xizmatlar turini kamligi [12]; texnologik taraqqiyotni chuqurlashuvi, aksariyat mamlakatlar bularni o'zlashtirishida moddiy xarakatlarni qimmatligi; axborot texnologiyalaridan foydalilaniladigan xizmatlar sohasini keskin rivojlanishidagi to'siqlar [11], mamlakatlarda uni keng rivojlanib borishini sustligi va boshqa shu kabilarni kiritishimiz mumkin.

## Xulosa va tavsiyalar

Dunyo iqtisodiyoti va siyosatidagi turli inqirozlar, shuningdek bozor munosabatlarining shakllanishi va raqobatning kuchayib borish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati shuni ko'rsatadiki, korxonalarining samaradorligi ularning aholiga xizmat ko'rsatishning tashkiliy modelini to'g'ri tanlashga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bozor xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz - xizmatlar ko'rsatishni yangi tashkiliy vazifalarni shakllanishini, ya'ni investitsiyalarni izlash va raqobat muhitida muammolarni hal qilishga yuqori malakali kadrlarni shakllantirish orqali erishish; bozor sharoitlariga moslashuvchi alohida, individual xizmat turlarini rivojlantirish; tashqi muhitining murakkabligi, dinamikligi va noaniqligi tufayli aholiga xizmat ko'rsatishning moslashuvchan modellarini ishlab chiqish; qisqa vaqt ichida va minimal xarajatlar bilan talabning o'zgaruvchanligi va raqobatning kuchayishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining samarali ishlashini ta'minlovchi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va boshqa shu kabilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чоралар белгиланди. Худудларда хизмат кўрсатиш соҳаси йўналишларини ривожлантириш масалалари бўйича ўтказилган йигилиш маъruzasiдан. <https://president.uz/uz/lists/view/4300>
2. Dedajanov Bakhtiyor Nabijanovich. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT ISSUES. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3744–3755. <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S06.499> (Original work published December 29, 2022)
3. Ergasheva Fotima Ibragimovna, & Ismoilova Gulnoza Ravshanjonovna. (2024). KICHIK TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINING UMUMIY IQTISODIY HOLATINI BAHOLASH DINAMIKASI. Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 189–195. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11068373>. <https://zenodo.org/badge/DOI/10.5281/zenodo.11068373.svg>.
4. Ergasheva Fotimakhon Ibragimovna. (2023). Enterprises The Nature Of Uncertainty And Risk In The Activity. Miasto Przyszłości, 42, 319–322. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2070>
5. Ergasheva, F. (2023). RISKS IN BUSINESS ACTIVITIES AND THE REASONS FOR THEIR INCREASE. B INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T. 3, Выпуск 12, cc. 56–59). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10317457>
6. Ergasheva, F., & Rustamov, D. (2024). KORXONALARDA QARORLAR BAJARILISHI NAZORATI: MOHIYAT, TAMOYIL, MEZON VA YO'LLAR. B ilm-fan

(Т. 2, Выпуск 2, сс. 82–86). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10571040>

7. Nabijanovich, D. B. (2023, May). STRATEGIYA VA STRATEGIK BOSHQARISH: ILMIY YONDASHUVLAR VA XUSUSIYATLAR. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

8. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТ В НАУКУ № 3 (27) 2019.

[https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)

9. Эргашева Фотимахон Ибрагимовна, & Охунжонова Мадина Исоқжоновна. (2024). КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ. Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 196–204.

<https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/5322/10475>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11068406>.

10. Эргашева, Ф. И. (2023). БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: МУММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).

11. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).

12. <https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-obsluzhivaniya-naseleniya-na-predpriatiyakh-sfery-servisa-v-usloviyakh-konkur>